



**UYG'ONISH DAVRI ALLOMALARINING TENGLIK VA
TOLERANTLIK MASALASI BO'YICHA QOLDIRGAN ME'ROSI**

Mamirov Azizjon Niyazmuxamedovich.

ALFRAGANUS University

Ijtimoiy fanlar kafedrası katta oqituvchi

Falsafa fanlari boyicha falsafa doktori PhD).

e-mail: Aziz_mn@list.ru

[tel: +998935074799](tel:+998935074799)

Kalit so'zlar. *Bag'rikenglik, mutafakkir, hamkorlik, insoniyat, tamoyil, jamiyat, shakllanish, tinchlik, adolat, mehr-oqibatlilik, axloqiy xislatlar*

Tariximizga nazar tashlasak, islom ta'limotida ham bag'rikenglik g'oyalari o'z ifodasini topganligini ko'rishimiz mumkin. Bu g'oyalar Qur'oni karim, hadislar hamda tasavvuf falsafasi g'oyalarida juda ko'p uchraydi. Islom dinining eng katta targ'ibotchilaridan hisoblangan yirik tasavvuf namoyondasi Bahouddin Naqshband ta'limotida bosh g'oya «Dil ba yoru, dast ba kor» - «qo'ling mehnatda, ko'ngling xudoda bo'lishi shart» demakdir. Tashqi tomondan uning qo'li doimo ish bilan band bo'lsin, degani[1]. Baxouddin Naqshband mazkur g'oyasi bilan insonning bu dunyoga kelishidan maqsad ikki dunyo saodatiga erishishdir, deydi. Inson bu dunyoni deb u dunyodan, u dunyoni deb bu dunyodan voz kechishi kerak emasligini tushuntirgan. Baxouddin Naqshband ta'limoticha, ikkala maqsadga ham inson bag'rikenglik, ollohn oldida tenglik kabi tushunchalarni singdirish orqali yetishi mumkin. Alloh oldida barcha teng, inson ham shu sifatlarga ega bo'lmay turib, uning oldidagi vazifasini bajargan hisoblanmaydi. Bu dunyoda nafsni yengish va cheksiz riyozat chekish orqali haqiqatga erishish mumkinligini ta'kidlab o'tadi.

Bag'rikenglik tamoyili haqida gap ketganda, mamlakatimiz tarixida bir qancha allomalarning yozib qoldirgan ma'naviy merosi hozirgi kunda ham bizga dasturul amal bo'lib xizmat qilayotganligini ko'rishimiz mumkin. Bu zaminda yashab ijod qilgan Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino, Forobiy kabi mutafakkirlar



Vatanimiz ilmu fani rivojiga, xalqlar, mamlakatlar o'rasida do'stlik aloqalarini bog'lashga katta hissa qo'shishgan.

Misol qilib aytadigan bo'lsak, Abu Rayxon Beruniy butun insoniyatning mulki sifatida qadrlanadigan 150 ga yaqin asar yaratgan buyuk mutafakkirdir. Adabiyotlar tahliliga ko'ra, uning «Hindiston» asari aynan bag'rikenglik tamoyili sabab dunyoga kelgan. O'zi boshqa yurtidan bo'la turib, Hindiston haqida hatto, hindlar ham yozolmagan darajada mukammal asar yozishni yuksak bag'rikenglik namunasi deb atasak, xato bo'lmaydi.

Beruniy fikricha: «Odam o'z ehtiyojining ko'pligi, himoya qilish qurollariga ega bo'lmagani va dushmanning ko'pligi tufayli bir-birini himoya qilish zarurligi, o'zini va boshqalarni ta'min etish zarur bo'lgan biror ishni bajarishi uchun jamiyatda qarindosh-urug'i bilan birlashishga majbur bo'lgan»[2]. Shunga ko'ra, mutafakkir xalqlarning birlashishi, mehnatga bo'lgan ehtiyojni tabiiy jarayon ekanligini ta'kidlagan. Birlashgan holda faoliyat olib borish insonlar turmush sharoitini yaxshilashi ijobiy tomonga o'zgartirishi mumkinligini ta'kidlab o'tgan.

M.Fayozov fikricha: «Alloma elatlar, xalqlarni bir-biri bilan do'st, inoq, birodar bo'lib yashashga, hamkorlik qilishga, qo'lla-quvvatlash, bir-birlariga yordam berishga chaqirgan»[3]. Shu bilan birga, «Olim jamiyat mohiyati, kelib chiqishi, hayoti, taraqqiyoti, maqsadi, vazifalari haqida diqqatga sazovor fikrlari, qarashlari, konsepsiyalari bilan buyuk kashfiyotlar, butun dunyoga mashhur asarlari bilan jahon fani, madaniyati, sivilizatsiyasiga katta hissa qo'shdi»[4].

Beruniy insoniyat tengligi va bag'rikenglik g'oyalarini tarannum qilganligini uning insoniyat rivojiga katta xissa qo'shgan asarlarida, falsafiy g'oyalarida uchratish mumkin. U o'zi boshqargan Xorazm Ma'mun akademiyasiga millati va dinidan qat'i nazar, ilm-fanga katta hissa qo'shgan olimlarni jalb qildi. Bu bilan u yuksak bag'rikenglik fazilatini namoyon qildi. Bu ishlari natijasida ko'p xalqlar va mamlakatlarning birlashganligining guvohi bo'lishimiz mumkin. Xususan, S.Hasanov fikricha: «Ma'mun akademiyasidagi olimlarning ilmu fan sohasida erishgan necha asrlardan buyon Sharq va G'arbda ma'lum va mashhur bo'lib kelayotgan hozirgi avlod kishilari uchun ham g'oyatda hayratlanarlidir. Yana shuni



ham alohida ta'kidlash kerakki, bu mashhur olimlar Ma'mun akademiyasida an'ana yaratgan edilarki, keyinchalik ko'pgina hukmdorlar bir necha asrlar zaminida shu an'anaga kat'iy amal qilib, o'z saroylarida bunday ilm markazlarini tashkil qilib, o'zlari ham ilmu ma'rifat sohasida sermahsul ijod qildilar»[5]. Qaydagi ilm-ma'rifat, ma'naviyat va madaniyat yuksalar ekan, o'sha yerda adolat va tenglik g'oyalari tarannum etadi. G'arazgo'ylik, yovuzlik, adovat va nafrat kabi tuyg'ular chekinadi. Shu ma'noda, Beruniyning yaratgan kashfiyotlari, ilmiy, ma'rifiy sohalarga qo'shgan xissasig zamirida insoniyat rivoji, jamiyat yuksalishi yotganligini ko'rish mumkin.

Beruniy odamning oliy fazilati boshqalar ayniqsa, kambag'allar haqida g'amxo'rlik qilishdan iborat, deb uqtirgan. U xalqlarning do'st, inoq, ittifoq bo'lib yashashi uchun kurashib kelgan. U insoniyatga, u yaratgan fan, madaniyatga qirg'in keltiruvchi urushlarni qattiq qoralagan.

Insoniyat tarixida ilm-fan rivojiga juda katta hissa qo'shgan yana bir buyuk allomalardan biri Abu Ali ibn Sino hisoblanadi. Umrining ko'p vaqtini sarson-sargardonlikda, zindon va qochqinlikda o'tkazgan alloma hayot qiyinchiliklariga qaramay, 400 dan ko'p asarlar yozgan, shulardan 242 tasi bizgacha yetib kelgan. Insonlar jamiyatda bag'rikenglik va tenglik, ahillik tamoyillariga amal qilib yashasa ko'p ijobiy natijalarga erishishi mumkinligini alloma o'zining «Qush risolasi» asarida keltirib o'tadi. Bu risolada qush obrazi orqali inson kamoloti va o'zligini anglashi naqadar muhimligi yoritilgan. Xususan, bu asarda: «Baxt o'z do'stlaring yonida yashagan, sen har kuni ko'rishib turadigan, birga ishlaydigan va o'z vaqtingni hushchaqchaq o'tkazib turadigan do'stlaring bilan yashaydigan joydadir»[6] deb ta'kidlaydi.

Yuqoridagi fikri bilan alloma insonlarda mexr-oqibat, tenglik va bag'rikenglik g'oyalarini jamiyat uchun qanchalik muhim ekanligini keltirib o'tadi. Kuch birlikda, yakdillikda, albatta, tenglik g'oyalari rivojlangan joyda bo'ladi. Agar insonlar bir-birlariga bag'rikenglik g'oyalari bilan munosabatda bo'lsalar, har qanday mushkul ishni ham uddasidan chiqish mumkinligiga ishontirgan.



Ibn Sino barcha insonlarning tabiatan har xilligini tan olib, ular orasidagi ijtimoiy tengsizlikka ham tabiiy jarayon sifatida qaragan. Har kim o'z holatini anglashi, shu holatdan kelib chiqqan holda faoliyat olib borishi kerak. Bag'rikenglik tamoyilini anglash orqali insoniyat jamiyatdagi o'rni belgilaydi, baxtli hayotga erishishga intiladi.

«Ibn Sino insonning bilish qobiliyati, aql zakovatini ulug'laydi. Ilm-fanni jamiyat oldidagi buyuk rolini asoslaydi. U insonlarni adolatli, axloqli, ilm-ma'rifatli bo'lishga undaydi. Ibn Sinoning, ayniqsa, Sharq tibbiyotining yutuqlarini, tibbiy qomusni o'rganish va tartibga solib berish sohasidagi ishi olamshumul ahamiyat kasb etadi. Uning asarlari lotin tiliga, u orqali boshqa Ovro'pa tiliga tarjima etilgan. Ibn Sinoning O'rta Osiy madaniyati rivojida o'rni beqiyosdir»[7] deb ta'kidlagan akademik M.M.Xayrullayev.

Sharqning mashxur tarixiy mutafakkirlaridan yana biri Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy Xorazmda tug'ilib voyaga yetgan, dunyoga qomusiy olim sifatida dong taratgan. Xorazmiyning ilmiy-ma'naviy merosi ko'p bo'lib, nafaqat Sharq xalqlari, balki butun dunyo miqyosida kashfiyotlar qilgan mutafakkir hisoblanadi. U yaratgan «Al-jabr va muqobala» asari ilm-fanda yangi fanni insoniyatga taqdim qildi. Xorazmiyning «Xid hisobi bo'yicha kitob», «Usturlob bilan amal qilish», «Yer surati xaqida kitob», «Astronomik zij», «Tarix kitobi»kabi asarlari jamiyat hayotida ilm-fan rivojiga katta xissasini qo'shdi. Yoyma xaritani ham insoniyat tarixida ilk marotaba Xorazmiy kashf qilgan. Unda daryolar, tog'lar, orollar, ko'llar, shahar va yer shakli tuzulishi ifodalangan bo'lib, o'z davrida karvonlar, savdogarlar va sayohatchilar uchun muhim manba vazifasini bajargan. Xorazmiyning geometriya, matematika, «algoritm» kabi kashfiyotlari, olimlarning tan olishicha, hozirgi davr sivilizatsiyasi asosini tashkil qiladi. Agar bu kashfiyotlar bo'lmaganida hozirgi fan-texnika rivoji ham bo'lmas edi.

Atrofimizni o'rab turgan dunyo, undagi hodisa va munosabatlarni bilish juda qiyin. Ammo inson o'zi aql-idroki, qobiliyati, iste'dodi, mehnati va harakati, tirishqoqligi bilan narsa va hodisalar mohiyatini bilishga qodir. Shu o'rinda jamiyatning rivojlanishida asos bo'lib axloqiy xislatlar yotishini ta'kidlab o'tgan.



Xususan, bag‘rikenglik, tenglik, shirinso‘zlik, mehnatsevarlik, xalqparvarlik kabi fazilatlarning yoshlar ongida shakllanishi, kelajakda ularni komil inson bo‘lib yetishishiga olib keladi.

O‘rta Osiyo va yaqin sharq xalqlarida tolerantlik tarbiyasi uzoq tarixga ega. Sharq allomalari asarlarida «tolerantlik» tushunchasi yaqqol namoyon bo‘lganini ko‘rish mumkin. Buyuk mutafakkirimiz Abu Nasr Forobiyning insoniyat kelib chiqishi, mazmuni va mohiyati haqidagi ta’limotini ta’kidlab o‘tishimiz joiz. Forobiyshunos akademik M.M.Xayrullayev fikricha: «Forobiy jamiyatning kelib chiqishi ustida mulohaza yuritir ekan, zo‘ravonlik va majburlash ta’limotini inkor etib, inson jamoasining kelib chiqishi asosida tabiiy ehtiyoj yotganligi haqida nazariyani olg‘a suradi. Tabiiy ehtiyoj kishilarni bir-birlari bilan birlashishga, uyushishga, o‘zaro yordamga olib keladi. Ana shu o‘zaro yordam tufayli ehtiyoj qondiriladi. Kishilar o‘rtasidagi o‘zaro yordam inson jamoasini keltirib chiqaradi»[8].

Shu o‘rinda Forobiy insoniyatning yashash sharoitini osonlashtirish uchun albatta birlashishi kerakligini tushunib yetganligini ta’kidlaydi. Birlashish uchun esa, albatta, o‘zaro hamjihatlik, tenglik tamoyillariga amal qilish zarur.

Forobiy fikricha, insoniyat bax-saodatga erishishi yo‘lida irqiy, ijtimoiy, milliy kelib chiqishidan qat’iy nazar insoniyat birlashishga bo‘lgan intilishi ularning umuminsoniy qadriyatlari shakllanishini belgilaydi. Uning fikricha: «Odamlarga nisbatan ularni birlashtirib turuvchi ibtido insoniylikdir, shu tufayli odamlar odamzod turkumiga oid bo‘lganligi uchun ham o‘zaro tinchlikda yashamoqlari lozim»[9]. Insoniyat uchun tinchlik Forobiyning fikricha eng oliy ne‘matdir. Tinchlikka esa o‘zaro bag‘rikenglik va hurmat bilan erishiladi. Zero, insoniyatning eng katta baxti ham ana shu tinchlik negizida shakllanadi.

Adabiyotlar tahlilicha uning «Fozil odamlar shahri» asarida jamiyat unda insonning o‘rni haqida atroflicha to‘xtalib o‘tgan. Mutafakkirning fikricha, insonning inson sifatida shakllanishida aql va nafs eng oldingi o‘rinda turadi. Ammo bu boshlang‘ich toifalar insonning inson sifatida shakllanishi va kamol topishi uchun kifoya qilmaydi, chunki inson insoniy kamolotga erishishi uchun o‘zaro so‘zlashish



va mehnat qilishga muhtoj. Inson doimo komillikka intiladi, ammo faqatgina intilib qolmay, balki tabiatda mavjud bo'lgan narsalardan ham foydalanadi.

Donishmand fozil jamoa haqida gapirganda, eng avvalo, bunday jamiyatda adolat bo'lishi, adolat tamoyillari hukm surishi kerakligini, bu narsa barchaga zarur bo'lgan muhim ne'mat ekanligini aytib o'tadi. Fozil jamoaga esa insonlar bag'rikenglik, tenglik, hamjihatlik va o'zaro mehr-oqibatlilik tamoyilini shakllantirgandagina erishish mumkin. Demak, adolat fozil hukmdorning oqilona olib borgan siyosati natijasida yuzaga chiqadi.

Uning fikricha, adolat tamoyili barcha sohalarda bo'lishi zarur. «Adolat – bu, avvalambor, barcha jamoa a'zolari qaramog'idagi ijtimoiy ne'matlarning (to'g'ri) taqsimlanishidir, undan tashqari, kishilararo taqsimlangan ne'matlarni saqlab qolish hamdir. Bunday ne'matlar qatoriga boylik, izzat-ikrom, har bir odamning jamiyatda tutgan o'рни va fuqarolarning turmushiga aloqador boshqa ne'matlar kiradi. Chunki jamoa a'zolarining har biri o'zining mehnatiga muvofiq holda bu ne'matlardan tegishli hissasini olishi kerak. Shu bois agar biror kishiga bu ne'matlar kamroq taqsim etilsa, unga nisbatan adolatsizlik bo'ladi. Mabodo bu ne'matlarning taqsim qilinishida bir odamning ulushi ko'payib ketsa, u chog'da boshqa jamoa a'zolarining haqiga nisbatan adolatsizlik sodir bo'ladi»[10].

Forobiyning tenglik, adolat va bag'rikenglik haqidagi g'oyalari hozirgi kunda ham ilm ahli tomonidan katta qiziqish bilan o'rganilmoqda, inson va jamiyat haqida g'oya va nazariyalarga asos sifatida xizmat qilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Искандаров Б. Тасаввуф фалсафаси. – Тошкент: 1995. – Б. 16.

Абу Райхон Беруний. Танланган асарлар. – Тошкент: 1965. – Б.17.

¹ Фаёзов М. Инсон, Фалсафа ва ахлоқ. – Тошкент: Шарқ, 2011. – Б. 20.

¹ Фаёзов М. Инсон, Фалсафа ва ахлоқ. – Тошкент: Шарқ, 2011. – Б. 21.

¹ Ҳасанов С. Хоразм маънавияти дарғалари. – Тошкент: Адолат, 2001. – Б. 82.

Абу Али ибн Сино. Қуш ҳикояти. // Араб тилидан Абдусодиқ Ирисов таржимаси. – Тошкент: Шарқ юлдузи, 2015. – Б. 86-89.



¹ Хайруллаев М.М. Ўрта осиё илк уйғониш даври маданияти (Уйғониш даври маданияти). – Тошкент: Фан, 1994. – Б. 54.

Ўзбекистонда ижтимоий-фалсафий фикрлар тарихидан. – Тошкент: Ўзбекистон, 1995. – Б. 49.

¹ Фараби. Трактат о взглядах жителей добродетельного города. // Григорян. Из истории философии Средней Азии и Ирана VII-XII вв. – М.: 1960. – С.158.

¹ Фараби. Социально-этические трактаты. – Алма-ата: 1973. – С. 224.